



“AVESTO”DAGI AYOL OBRAZLARGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR

Shohinur Rahmataliyeva,
*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti
va folklori instituti tayanch doktoranti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206996>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimiy ko‘hna adabiy yodgorligimiz Avestodagi mifologik ayol obrazlar, ularning talqinlari xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Avesto, zardo‘shiylik, ma‘buda, mifologik obraz, Anaxita.

Ma‘lumki, “Avesto” – zardo‘shiylikning turmush tarzi, falsafiy-estetik, axloqiy va ijtimoiy qarashlari xususida boy ma‘lumotlarni o‘zida mujassam etgan ma‘naviy obida sanaladi. Mazkur ma‘naviy qadriyatimizning muayyan izlari o‘zbek folklorining tarixiy asoslarini yoritishda muhim manba vazifasini o‘taydi. Xususan, mifologik ayol obrazlar genezisini tadqiq etishda “Avesto” eng muhim, boy manba sirasiga kiradi.

“Avesto” da ayollarga nisbatan hurmat, e‘tiborga alohida ahamiyat berilib, ularni farzand dunyoga keltirib, e‘tiqodli, jasur etib tarbiya topishida onaning ahamiyati yuqori ekanligi ko‘rsatilgan: “Dastlabki kundayoq Axuramazda ayollarga buyurdi: ey ayol! Seni e‘tiqodli va pahlavon erkaklarni vujudga keltirib, mehr to‘la og‘ushingda parvarish et, deb yaratdim toki ular nodurustlik va nopoklik ildizini yer yuzidan yo‘qotsinlar”[1:114]. Shubhasiz, farzand tarbiyasida otaning tarbiyasi ham muhim, lekin intizomli va shijoatli onaning farzand tarbiyasidagi ahamiyati kattadir. “Avesto”da shu jihati e‘tiborliki, ayollar nomi ham ramziy, ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan inson vafot etgandan so‘ng ruhni go‘zal qiz Daena olib ketadi.[2:27]. Agar ruh oldingi hayotida gunoh ishlar qilgan bo‘lsa, uning amallari badbashara qari ayol qiyofasida keladi. Uni abadiy do‘zaxga olib ketadi.

Bundan tashqari yodgorlik matnida xotinlar nomi “Rita Siyabonu” yoki “Oshabonu” deb yuritilib, ma‘nosi “poklik va rostlik nuri”dir. Anglanadiki, “Avesto”da ayollar poklik va haqiqat ramzi sanalib, amalda ham shunga munosib bo‘lishgan. Shuningdek, “Avesto”da olov, hamda ezgulik ma‘budasi Asha nomi keltirib o‘tilgan. Uning asosiy vazifasi yer yuzidagi abadiy hayotning tartibotini boshqarish, odamlarga tansihatlik, uzoq umr, farovonlik va qut-baraka baxsh etuvchi ezgu iloha sifatida tasvirlangan.[3:68].

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



“Avesto” mifologiyasi talqinicha, Asha ezgulik kuchlarining sohibi Axura Mazda bilan Spenta-Armanitining qizi, Sraosha, Rashnu, Mitralarning singlisidir.[3:69]. Zardo‘shiylik mifologiyasining shakllanishiga asos bo‘lgan qadimgi inonchlarni tadqiq etgan M.Boysning ta’kidlashicha, protohind evropaliklarning asotiriy qarashlari tizimida suv kulti ham muhim o‘rin tutgan. Ular iloha Apasni daryo va ko‘llar suvining timsoli sifatida tasavvur qilishgan.[4:10]. Bizningcha, Hubbi mifonimining lisoniy-etimologik asoslari qadimgi Amu sohillarida istiqomat qilgan qavmlarning asotirlarida nomi zikr etilgan suv ma’budi va ilohasining ismi - Api (yoki Apas) atamasiga bog‘lanadi. Mifonim «suv ma’budi», «suv timsoli» ma’nosini bildiruvchi «api» leksemasiga «ezgulik», «yaxshilik» ma’nolarini bildirgan «hu» so‘zini [5:169]qo‘shish orqali yasalgan hamda «ezgu Api», «ezgu suv muakkili» ma’nolarida qo‘llanilgan.[3:75]. Demak, Amudaryo sohillarida rivojlangan dehqonchilik madaniyatini yaratgan qadim ajdodlarimiz mo‘l hosil va farovonlik manbai hisoblangan zamin hamda suv muakkili Apini mo‘tabarlashtirishgan. Daryoda toshqin ro‘y bergan vaqtlarda va sug‘orish mavsumi boshlanganda suv ma’budasi sharafiga qurbonlik marosimlarini o‘tkazganlar. Natijada xalq inonchlarida obi-hayot, serhosillik va ezgulik timsoli sifatida an’anaviylashgan Api (Apas) haqidagi asotir va afsonalar ham yuzaga kelgan. Hubbi obrazining mifologik asoslari jahondagi eng qadimgi sug‘orma dehqonchilik an’analari kelib chiqqan mamlakatimiz hududida shakllangan hosildorlik kulti bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Chunki Hubbi faqat suv manbaining mifologik timsoligina emas, balki qut-baraka, serhosillik, ezgulik ramzi sifatida ham e’zozlangan[3:74].

“Avesto”da uchrovchi yana bir ayol ma’buda, Ardvirusa (Ardvī Sūrā Anāhitā) Zardushtiylik dinida muhim ma’buda, iloha ayol sifatida alohida o‘rin tutadi. “Avesto” da qayd etilishicha: Anaxita obrazi hosildorlik, yog‘ingarchilik, homilador ayollarning og‘irini yengil qiluvchi ezgu iloha ekanligi to‘g‘risida ma’lumot bor.[6:98]. Suv, poklik, unumdorlik va himoya timsoli sifatida tasvirlangan. Ardvirusa (Anaxita) qadimiy eron madaniyatida ham diniy, mifologik obraz sanalib, jamiyat va inson hayotida muhim e’tiborga ega bo‘lgan ayol arxetiplarini ifodalaydi. Obrazning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat: “Avesto”da avvalo, suv ma’budasi, daryolar va jamiki suv manbalarining ilohasi hisoblangan bu obraz, Zardushtiylikda, muqaddaslashtirilgan, homiy, himoyachi ma’buda sifatida talqin etiladi. “Avesto”da tasvirlanishicha, hosildorlik, daryo suvlarining to‘lib oqishi va

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



mo‘l-ko‘lchilikni ta‘minlaydigan asotiriy kuch sifatida tasavvur qilingan suv ma‘budasi Ardvisura Anaxita to‘rtta oq ot qo‘shilgan aravada yurar ekan:

Bir tulpori Yomg‘irdir,
Biri Yel, biri bulut,
Tulporlari Yomg‘ir, Yel,
Suvli Bulut birla Do‘l
Uni doim qo‘riqlab,
Suvini mo‘l-ko‘l qilarlar[7:32].

“Avesto”da tasvirlangan suv ma‘budasi Ardvisura Anaxita zardo‘sh tiylar tasavvuricha, uzun bo‘yli, adl qomatli, chiroyli qiz ko‘rinishida bo‘lgan. U oltin zebu ziynatlar bilan o‘ziga oro bergan holda tasvirlanadi:

Ko‘zga ko‘rinib keldi
Muqaddas Ardvisura
Yosh nihol go‘zal qizdek,
Lek qudratli, purviqor,
Bo‘yi adl, sarvqomat,
Nur taratib ilohiy,
Oliyjanob, purhikmat,
Bashang kamzuli yengli,
Oltin-ziynatli engli.
Barsman xipchip qo‘lida
Ko‘z-ko‘z qilar sirg‘asin[7:32].

Ko‘rinadiki, Ardvisura yosh niholdek nozik, go‘zal, yuzidan ilohiy nur taralib turgan holda tasvirlangan. Ushbu ma‘buda “Avesto”dagi boshqa ko‘plab asotiriy personajlardan antropomorf qiyofadali bilan ajralib turadi. Ya‘ni, u inson ko‘rinishida – go‘zal qiz suratida namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda u hosildorlik ramzi sifatida ham e‘tirof etilib, yerning unumdorligini oshiruvchi, bolalarga hayot beruvchi ilohiy kuch sifatida qadrlanadi. Uni xalq orasida, oilalar va ayollar farovonligini himoya qiluvchi ma‘buda sifatida e‘tirof etishgan. Yuqoridagi ustvor jihatlariga qo‘shimcha tarzda Ardvisura jasorat va kuch ramzi ham hisoblangan. U yovuzlik kuchlariga qarshi kurashuvchi ma‘naviy kuch timsoli sifatida tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, «Avesto»dagi ayol obrazlarda qadimgi zardo‘sh tiylarning suv, hosildorlik, farovonlik kabi tushunchalar bilan bog‘liq qadimiy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Yuqorida tahlil qilinganlardan tashqari yomg‘ir chaqirish

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



maqsadida o‘tkazilgan Sust xotin marosimi, sumalak pishirish an‘anasi bilan bog‘liq Ashshadarozi o‘yini haqidagi mifik tasavvurlarning tarixiy asoslari ham bevosita «Avesto» mifologiyasidagi ayol obrazlarga bog‘lanadi. «Avesto»ning asosini tashkil etuvchi mifologik qatlamda qadimiy inonchlar tizimining vujudga kelishi ayol obrazlar bilan bevosita bog‘liq sanaladi. Bu nodir manba tarkibidan o‘rin olgan qadimgi mifologik ayol obrazlar O‘rta Osiyo xalqlari folklor an‘analarining shakllanishi va rivojlanishida ham muhim rol o‘ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xomidiy.X. Avestodan shohnomagacha. T.: 2007, 114- bet
2. Sulaymonova F. Sharq va g‘arb. T.: O‘zbekiston. 1997, 27-bet.
3. M. Jo‘rayev. M.Narziqulova. “Mif, folklor, adabiyot”. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. T. 2006. 68-b.
4. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. - М.: Наука, 1987. - С.10.
5. Абаэв В.И. Осетинский язык и фольклор.1. - М.-Л., 1949. - С.169.
6. Ishmurotov M. “Avesto” da mifologik qatlam. 2002. 98-b.
7. Авесто. Яшт китоби. (М.Исоқов таржимаси). - Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.32.